



BO‘LAJAK VETERINAR-MUTAXASSISLARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Narziyeva N.N.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport
kafedrası mudiri, PhD, dotsent*

Tayanch so‘zlar: veterinar-mutaxassis, tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish, metodika, o‘quv-uslubiy ta‘minot, maxsus kurs, loyiha, maqola va tezislar.

Ключевые слова: ветеринарный врач-специалист, исследовательская компетентность, развитие исследовательской компетентности, методика, учебно-методическое обеспечение, спецкурс, проект, статьи и диссертации.

Key words: veterinarian-specialist, research competence, development of research competence, methodology, educational and methodological support, special course, project, articles and theses.

Резюме:

Mazkur maqolada bo‘lajak veterinar-mutaxassislarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish usullari, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining o‘quv-uslubiy ta‘minoti, tanlov fan sifatida “Veterinariyada tadqiqotchilik” nomli maxsus kurs dasturi ishlab chiqilganligi va o‘quv jarayoniga joriy etilganligi va tadqiqotchilik kompetensiyasini laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda rivojlantirish jarayoni yoritilgan.

Резюме:

В данной статье рассмотрены методы формирования исследовательской компетентности у будущих ветеринарных врачей, учебно-методическое обеспечение методики формирования исследовательской компетентности, разработка программы спецкурса «Ветеринария» как факультативного предмета и введение в учебный процесс, а также развитие исследовательской компетентности в лабораторных и практических занятиях освещается процесс обучения.

Summary:

In this article, methods of developing research competence in future veterinarians, educational and methodological support of research competence development methodology, development of a special course program called "Veterinary Research" as an elective subject and introduction into the educational process, and development of research competence in laboratory and practical training process is covered.



Kirish. So‘ngi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlash maqsadida yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki, har qanday davlat taraqqiyoti uning fuqarolarining ijtimoiy faolligi va ilmiy salohiyati bilan belgilanadi. Ilmiy-tadqiqot ishlariga e‘tiborni kuchaytirishdan asosiy maqsad, jamiyat va tabiatdagi o‘zgarishlarni insoniyat ongli ravishda anglab yetishi, uning qonuniyatlari asosida inson manfaatlarini yuksaltirish, ilmiy nazariyalarni yaratish orqali milliy va madaniy boyliklarga ongli munosabatda bo‘lishni shakllantirishdan iborat.

Dunyo veterinariya ilm-fani va amaliyotida hozirgi vaqtgacha hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni o‘rganish, davolash va profilaktikasi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligiga juda ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Veterinariyada ilmiy-tadqiqot jarayonida abstract tafakkur, hissiy idrok etish, amalda qo‘llash o‘zifodasini topadi. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati yaxlit tizimga ega bo‘lib, asosan umumiy va oily ta‘lim shakllarida jarayonida shakllanadi, rivojlanadi va amalga oshiriladi. U o‘ziga xos bosqichlardan iborat bo‘lib, dastlabki bosqich maktab davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot olib boorish bo‘yicha boshlang‘ich tushunchalar shakllanadi. Keyingi bosqichlarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Tizimning yuqori bosqichlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning amaliy tatbig‘ini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda oily ta‘lim asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi va bu bosqichda talabalar tadqiqotchilik faoliyatining aniq yo‘nalishlariga ega bo‘ladilar. Turli xil fanlarning ilmiy asoslangan nazariyalari asosida vujudga kelgan ilmiy-amaliy tadqiqotchilik faoliyati asosida talabalar faoliyatining mazmuni, ko‘lamini aniqlash zarurati mavjud.

Hozirgi oily ta‘lim tizimining zamonaviy bosqichida yangi grant-loyihalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga keng joriy etilmoqda. Talabalarning turli xildagi STARTAP innovatsiyon loyihalari, fan to‘garaklari, maqola va tezislari ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini qay darajada egallaganliklarini ko‘rsatib beruvchi mezonlardan hisoblanadi.

Veterinariya mutaxassislarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining o‘quv-uslubiy ta‘minotini yanada boyitish maqsadida maxsus kursda turi ishlab chiqildi. Bizning tadqiqot ishimizning asosiy masalasi tadqiqotchilikni rivojlantirish ekan biz tomonimizdan tanlov fan sifatida“ Veterinariyda tadqiqotchilik” nomli maxsus kursda turi ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga joriy etildi.



Mazkur o'quvda sturi veterinariya ta'lim mutaxassisliklari magistr-lari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda magistr-talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-tadqiqot muammolari, mohiyati va tuzilmasi, uni shakllantirish usullariga oid mavzular yoritilgan.

Maxsus kursda sturida magistr-talabalar hozirgi veterinariya sohasining asosiy tarmoqlarida, hayvon, apparat va asboblarning tuzilishi hamda ishlash tamoyillari, shuningdek ulardan amalda foydalanish, asosiy materiallar, engtipik, sog'lom va kasal hayvonlarda kechayotgan biologik, fiziologik jarayonlarni bilish kabi tayanch kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

Kursning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi va ixtisoslik fanlari "Hayvonlar anatomiyasi va morfologiyasi", "Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi", "Hayvonlar xirurgiyasi, ortopediyasi, oftalmologiyasi" hamda "Veterinariya endokrinologiyasi", "Hayvonlar kasalliklari terapiyasi va diagnostikasi" va boshqa fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayaniladi.

Maxsus kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogic va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida elektron ta'lim resurslari (elektron trenajyor, taqdimotlar, elektron darsliklar va boshqalar) foydalanish;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda veterinariyaning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- mustaqil ishlarni tashkil etishda hayvonlardan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda veterinariya oliy ta'lim muassasalari ta'lim amaliyotida tahsil olayotgan magistr-talabalar tadqiqotchilik ishini tashkil etishning quyidagi ikkita asosiy turi mavjud:

1) amaldagi o'quv rejalarida ko'zda tutilgan talabalarning o'quv tadqiqotchilik ishi: kurs ishi va bitiruv malakaviy ishi, referatlar va ma'ruzalar;

2) amaldagi o'quv rejalarida ko'zda tutilmagan magistr-talabalarning tadqiqotchilik ishi: ilmiy (fan) va muammoli to'garaklar; muammoli laboratoriya ishlari; oliy ta'lim muassasalari, respublika va xalqaro miqiyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda, tadqiqotchilikka oid tanlovlarda ishtirok etish va chop etishga ilmiy maqolalarni tayyorlash.

Natija va muhokama. Talabalarning tadqiqotchilik ishlari bo'lajak veterinar mutaxassislarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida samarali bo'ladi.



Iqtidorli talabalarning ilmiy to'garaklari ko'proq 3-4 bosqichda va magistr-talabalar bilan ishlashda qo'llaniladi. Ularda ishtirok etish talaba uchun tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanishdagi birinchi qadam hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishning eng ko'p tarqalgan shakli - bu ma'ruzalar va referatlar tayyorlash, ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda va fan olimpiadalarida ishtirok etish, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, shuningdek oliy ta'lim muassasalari ilmiy to'plamlarida eng yaxshi ishlar tezislari chop etish va boshqalar hisoblanadi.

Muammoli to'garaklar ilmiy to'garaklardan, turli ta'lim yo'nalishlari va turli kurs talabalarini birlashtirishi bilan farq qiladi. Muammoli to'garaklar uchun tanlangan mavzuni chuqurroq o'rganish va turli tomonlardan ko'rib chiqish xarakterlidir. Buning uchun esa diskussiyalar, aqliy hujum, axborot materiallarini tahlil qilish va taqqoslash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Talabalar tadqiqotchilik ishining keyingi murakkablik darajasi muammoli talabalar laboratoriya ishlari hisoblanadi: laboratoriyadagi mashg'ulotlar talabalarda tadqiqotchilik faoliyatining ma'lum bilim, ko'nikma va tajribalar zahirasi nazarida tutadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar real (aniq) hujjatlarni o'rganish va tahlil qilishga, ilmiy nashrlar, dasturlar, ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish, vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilishga, eksperimentni tayyorlash va amalga oshirishga jalb etiladi. Talabalarning muammoli laboratoriyalari, talabalar tadqiqotlari kooperatsiyasi va ilmiy kommunikativ ko'nikmalari shakllanishi uchun yaxshi vosita bo'lib hisoblanadi. Malakali o'qituvchilar talabalar muammoli laboratoriya ishlarining bosh muammosini, qiziqish va imkoniyatlarni hisobga olgan holda tashkiliy qismlarga ajratishadi va ularni talabalarga birlashtirishadi. Buning natijasida esa turli nuqtai nazarlar hosil bo'lishi va ularning to'qnashuvi, muqobilini tanlash, eng samarali va optimalini aniqlash uchun maydon paydo bo'ladi. Talabalar ilmiy muammoni hal qilishning jamoaviy tajribasini egallashadi. Talabalar muammoli laboratoriya ishlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: ilmiy laboratoriya va markazlar, muammoli ilmiy guruhlar va boshqa ijodiy uyushmalar.

Bushakllarda rejalashtirilayotgan talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining maqsadlari bo'lib o'quv fanlarini chuqurlashtirib o'rganish; fanning zamonaviy yutuqlari bilan tanishish; ilmiy bilish metodologiyasini egallash; ilmiy dunyoqarashni kengaytirish; ilmiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish; intellektual muammo va vazifalarni qo'yish hamda hal qilish ko'nikma va malakalarini egallash va boshqalar hisoblanadi. Muammoli guruh faoliyatida alohida e'tibor ma'ruzalar va referatlarni tayyorlashga qaratiladi.



Talabalarning ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlari ularda ilmiy yozma nutqni rivojlantirish, empirik materialni umumlashtirish, uning mohiyatini ajratish va boshqa ishtirokchilarga taqdimot qilish, uni anjumanda muhokama qilinayotgan mavzuning umumiy darajasi bilan taqqoslash, o'z tushunishiga tuzatishlar kiritish va yangi g'oyalarni topish imkoniyatini taqdim etadi.

Vetrinariya sohasida tadqiqotchilikka o'rgatish usullaridan yana biri olingan natijalarga biometrik qayta ishlov berish usulidir. Biometriyaning asosiy vazifasi tirik organizmlar (tur, zot, populyatsiya) miqdoriy belgilarining o'zgaruvchanligini o'rganish hamda bir yoki bir nechta belgilarga ko'ra o'rganilayotgan guruh vakillarini tavsiflovchi parametrlar va koeffitsientlar to'plamini olishdan iborat.

Biometriya bu bosh to'plam (N) deb ataladi va tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hayvonlar bilan amaliy ishlarda statistik ma'lumotlarning asosiy manbalari: birlamchi veterinariya hisoblari; ilmiy va ishlab chiqarish tajribasi; veterinariya laboratoriyalarida maxsus ilmiy tajriba; uy yoki yovvoyi hayvonlarning yirik uchastkalarini tekshirishda, ekspeditsiyalar paytida olinadi.

Bosh to'plamda ko'p sonli hayvonlarni o'rganish murakkab va qimmat ishdir, shuning uchun tanlama olish deb ataladigan usul qo'llaniladi, bu tekshirilgan hayvonlarning kamroq bosh sonini tanlash orqali bosh to'plamni baholash imkonini beradi. Veterinariyada shunga o'xshash bir qancha metodlar borki, bular aynan vetrinar mutaxassislarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Bo'lajak vetrinar mutaxassislari tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilar aniqlandi. jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar va ularga mos komponentli mutaxassislarga ehtiyojning oshishi; kompetentli mutaxassislarni o'qitishning an'anaviy didaktik ta'minot asosida tayyorlashning imkoni yo'qligi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan mavjud didaktik ta'minot qo'yiladigan talablar kompetentli yondashuv asosida takomillashtirildi.

Adabiyotlar:

1. Асқаров И.Б. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тадқиқотчилик фаолиятига тайёрлаш методикаси. Авторефер. дис. ...пед. фан. бўйича фал. док. -Т.: 2018. -22 б.
2. Турматов Ж.Р., Ҳамидов Ж.А. Талабалар тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этишга бўлажак касб таълими ўқитувчиси тайёргарлигини шакллантириш жараёнини моделлаштириш // Педагогик маҳорат. -Бухоро, 2012.-№ 2.-Б. 19-23.
3. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / - Тошкент, 2015. - 120 бет.